


TOSHKENT SHAHAR  
TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2019-yil yanvar)

2019-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi 799,7 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 201,2 ming AQSH dollarga (4,5 % ga kamaydi) va import hajmi 598,5 ming AQSH dollariga (o'sish sur'ati 11,2 %) o'sdi. Tashqi savdo saldosi -397,3 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent shaharning tashqi savdo aylanmasi  
(mln. AQSH dollari)



Toshkent shahrida so'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi yo'lida sezilarli ishlar olib borilmoqda. 2018 yil mobaynida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan mevasabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning yanvar oyida Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,7 mln AQSH dollariga, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,2 mln. AQSH dollariga ko'proqdir.

**Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega bo'lgan 20 davlat**


(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	195,2	62,5	132,7	24,4	128,3
Rossiya	192,7	42,3	150,4	24,1	98,4
Qozog'iston	74,6	10,3	64,3	9,3	102,8
Turkiya	38,5	6,6	31,9	4,8	106,8
Janubiy Koreya	28,5	3,0	25,5	3,6	175,3
Afg'oniston	23,3	23,2	0,1	2,9	57,5
Litva	18,4	1,3	17,1	2,3	115,0
Ukraina	17,6	2,1	15,5	2,2	102,4
Hindiston	17,4	0,5	16,9	2,2	166,6
Germaniya	14,4	1,3	13,1	1,8	53,2
Turkmaniston	13,6	1,9	11,7	1,7	6,6 b.
Tojikiston	13,0	11,9	1,1	1,6	90,0
Braziliya	12,9	0,0	12,9	1,6	214 b.
Latviya	12,0	0,4	11,6	1,5	60,8
AQSH	11,9	0,6	11,3	1,5	2,4 b
Eron	8,4	2,9	5,5	1,0	2,6 b
Qirg'iziston	8,1	6,5	1,6	1,0	92,1
Italiya	5,9	1,1	4,8	0,7	107,3
Isroil	5,5	1,1	4,4	0,7	6,7 b.
BAA	5,3	1,4	3,9	0,7	193,5

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda tashqi savdo aylanmasida ijobiy tomonga sezilarli o‘zgarish kuzatilmoqda, jumladan Braziliya 2019 yilning yanvarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 214 barobar o‘sgan, Isroil davlatida bu ko‘rsatkich 6,7 barobar, Turkmaniston davlatida 6,6 baroborga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Germaniya (46,8 % kamaygan), Afg‘oniston (42,5 % kamaygan), Latviya (39,2 % kamaygan) davlatlar tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamaytirgan.

2019-yilning yanvar oyi yakuni bo‘yicha tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanuvchi korxonalar 385 taga yetkazildi.


**Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi**  
(mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma‘lumotlar ko‘rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o‘sganligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar oyida amalga oshirilgan tashqi savdo hajmi, o‘tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, 799,7 mln. AQSH dollarini tashkil qildi, import hajmi, o‘tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, 598,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida oxirgi yillarga qaraydigan bo'lsak importning ulushi jami tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushiga qaraganda biroz yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2019 yilning yanvar xolatiga tashqi savdo aylanmasida import (74,8 %), eksport (25,2%) ni tashkil qilgan.

### Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, %




Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar oyida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,1 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,2 % tashkil etdi. Eksportda MDH davlatlarining ulushi 39,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,4% ni tashkil qildi. MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog'iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanadi

### Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi (mln. AQSH.dollari)



Boshqa xorijiy davlatlarning Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar oyida 56,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,8 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga o'sdi. Toshkent shahrining importdagi ulushi 2018-yilning yanvar oyida 53,0 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa importdagi ulushi 58,0 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,1 % ga o'sdi.


### Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi dinamikasi (mln. AQSH.dollari)




## EKSPORT

2019-yil yanvar oyida eksport hajmi 201,2 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida xizmatlar 61,2 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar oyida jami eksportda xizmatlar 123,2 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi  
yanvar holatiga  
(mln. AQSH. dollari)**



**Eksport tarkibi jamiga nisbatan foizda**



2019 yil yanvar oyida Eksport hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,5 % kamaydi. Jami eksport tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 2,0% ni, qora rangli metallar 3,2 % ni, tashkil qildi.

**Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan eksport hajmi**

(ming. AQSH.dollari)

	<b>2018 yil yanvar</b>	<b>2019 yil yanvar</b>	<b>o`zgarish sur`ati, %</b>	<b>ulushi, %</b>
<b>Rossiya</b>	27950,6	42266,0	151,2	55,20
<b>Tojikiston</b>	13725,7	11929,0	86,9	15,58
<b>Qozog`iston</b>	12061,1	10250,7	85,0	13,39
<b>Qirg`iziston</b>	3834,7	6477,4	168,9	8,46
<b>Ukraina</b>	6340,7	2096,6	33,1	2,74
<b>Turkmaniston</b>	1827,5	1918,0	104,9	2,50
<b>Ozarbayjon</b>	1023,5	1192,2	116,5	1,56
<b>Belarus</b>	245,5	404,6	164,8	0,53
<b>Moldova</b>	18,2	19,2	105,3	0,03
<b>Armaniston</b>	37,9	17,0	44,8	0,02

Toshkent shahrida eksport qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar oyida MDH davlatlarining ulushi jami eksportda 38,1 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,4 % ga oshdi. MDH davlatlari orasida yuqori ulushga ega davlatlar Rossiya (55,2%), Tojikiston (15,58%), Qozog'iston (13,39%) lar bo'lib jami MDH davlatlaring 84,17 % ni tashkil qiladi. O'tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli ko'paytirgan davlatlar Qirg'iziston (68,9%), Belarus (64,8%), Rossiya (51,2%) davlatlar.

O'tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli kamaytirgan davlatlar orasida Armaniston, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston davlatlari bor.

**Toshkent shahridan yanvar oyida MDH davlatlariga  
amalga oshirilgan eksportni tarkibi,  
(ming AQSH dollari)**

	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
<b>Ozarbayjon</b>	532,0	12,1	493,0	148,4	0,0	2,4	4,3
<b>Armaniston</b>	-	-	-	17,0	-	-	-
<b>Belarus</b>	-	-	234,9	167,9	-	1,7	0,1
<b>Qozog'iston</b>	872,1	274,8	769,8	6851,8	1359,4	97,5	25,3
<b>Qirg'iziston</b>	466,5	32,6	1053,7	1270,3	3649,5	4,7	0,1
<b>Moldova</b>	-	2,3	-	16,9	-	-	-
<b>Rossiya</b>	13279,7	742,8	12623,1	13235,8	1064,5	401,9	918,1
<b>Tojikiston</b>	580,7	17,0	160,4	7781,9	3335,9	51,2	1,9
<b>Turkmaniston</b>	19,5	152,5	31,4	1638,7	60,2	-	15,6
<b>Ukraina</b>	223,5	8,3	424,1	120,5	1312,5	7,5	0,2

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi xilma xilligi bo'yicha Rossiya, Ozarboyjon, Ukraina, Tojikiston alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining eksport hamkori xisoblanadi.

Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlarning eksport hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy ( 51,0%), Afg'oniston (18,9 %), Turkiya (5,4 %) ni tashkil qiladi.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan  
eksport hajmi yuqori ulushga  
ega bo'lgan 10 davlat**

(ming. AQSH.dollari)


	2018 yil yanvar	2019 yil yanvar	o'zgarish sur'ati, %	ulushi, %
Xitoy	62893,6	62480,1	99,3	51,0
Afg'oniston	40556,3	23200,4	57,2	18,9
Turkiya	14116,3	6625,2	46,9	5,4
Janubiy Koreya	4010,5	2950,1	73,6	2,4
Eron	1161,0	2906,3	2,5 b	2,4
Buyuk britaniya	1122,0	2197,1	195,8	1,8
Belgiya	2035,8	2116,8	104,0	1,7
Singapur	300,8	1655,9	5,5 b	1,4
BAA	587,1	1374,1	2,3b	1,1
Germaniya	1034,8	1341,5	129,6	1,1

Boshqa xorijiy davlatlar orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan keskin kamaytirgan davlatlar orasida Afg'oniston (42,8%), Turkiya (53,1 %), Janubiy Koreya ( 26,4%) ga kamaytirgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan Singapur (5,5 b), BAA (2,3 b), Eron (2,5 b) ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning eksport hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.


## IMPORT

2019-yil yanvar oyida import hajmi 598,5 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. import tarkibida mashina va asbob-uskunalar 33,8 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar oyida jami importda xizmatlar 202,0 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlar import tarkibi  
yanvar holatiga  
(mln. AQSH. dollari)**



**Import tarkibi jamiga nisbatan foizda**



2019 yil yanvar oyida Import hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 % o'sdi. Jami import tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 13,3% ni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 19,3 % ni, qora rangli metallar 10,2 % ni, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 3,6% ni, tashkil qildi.

**Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan import hajmi**

(ming. AQSH.dollari)

	2018 yil yanvar	2019 yil yanvar	o'zgarish sur'ati, %	ulushi, %
<b>Rossiya</b>	167852,8	150477,5	89,6	60,15
<b>Qozog'iston</b>	60504,0	64349,7	106,4	25,72
<b>Ukraina</b>	10832,7	15494,2	143,0	6,19
<b>Turkmaniston</b>	217,8	11709,7	53,7b	4,68
<b>Belarus</b>	6629,5	4567,8	68,9	1,83
<b>Qirg'iziston</b>	4995,4	1656,2	33,2	0,66
<b>Tojikiston</b>	671,9	1031,2	153,5	0,41
<b>Ozarbayjon</b>	674,1	540,9	80,2	0,22
<b>Armaniston</b>	109,5	74,3	67,9	0,03
<b>Moldova</b>	84,2	25,5	30,3	0,01

Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlari orasida jamiga nisbatan Rossiya (60,15 %), Qozog'iston (25,72 %), Ukraina (6,19 %) larni tashkil qilib jami MDH mamlakatlarning (92,06 %) ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari orasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan Moldova (69,7 %), Qirg'iziston (66,8 %), Armaniston (32,1 %), ga kamaytirgan. Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlar orasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan Turkmaniston (53,7b), Ukraina (43,0 %), Tojikiston (53,5 %), Qozog'iston (6,4 %) ga ko'paytirgan.

**Toshkent shahriga yanvar oyida MDH davlatlariga  
amalga oshirilgan import tarkibi,  
(ming AQSH dollari)**

	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
<b>Ozarbayjon</b>	-	15,4	-	161,7	273,5	-	90,2
<b>Armaniston</b>	-	-	-	0,1	74,2	-	-
<b>Belarus</b>	1929,3	770,5	710,0	271,5	624,6	139,5	122,5
<b>Qozog`iston</b>	2786,2	26903,3	4005,8	1360,4	1895,7	20348,4	7049,9
<b>Qirg`iziston</b>	224,1	263,8	352,6	232,5	8,9	514,0	60,3
<b>Moldova</b>	-	16,5	-	1,7	7,3	-	-
<b>Rossiya</b>	31833,9	17176,1	40070,7	11223,1	18176,3	29703,7	2293,7
<b>Tojikiston</b>	92,9	-	542,2	338,0	30,3	20,1	7,6
<b>Turkmaniston</b>	-	-	356,5	358,4	147,0	-	10847,8
<b>Ukraina</b>	650,4	7002,6	2781,8	7,3	4834,5	217,5	-

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlarning importi tarkibi xilma xilligi bo'yicha Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining import hamkori xisoblanadi. MDH mamlakatlari orasida 2019 yil yanvar oyi davomida Armaniston Toshkent shahriga ximatlar va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar importini amalga oshirgan. Moldova davlatida esa bu ko'rsatgichlarga oziq-ovqat mahsulotlari importini ham kiritishimiz mumkin.


Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlarning importi hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy ( 38,1 %), Turkiya (9,2 %), Janubiy Koreya (7,3 %) ni tashkil qiladi. Bu davlatlar boshqa xorijiy davlatlari orasida jami tovar va xizmatlar importida 54,6 % ni tashkil qiladi. Birgina Xitoy mamlakati Toshkent shahriga 2019 yilning yanvar oyida 132,7 mln AQSH dollarlik import qilgan. Bu ko'rsatgich bilan o'tgan yilning most davriga nisbatan 48,7 % ga o'sganligini ko'rsatadi.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan  
import hajmi yuqori ulushga  
ega bo'lgan 10 davlat**

(ming. AQSH.dollari)

	2018 yil yanvar	2019 yil yanvar	o'zgarish sur'ati, %	ulushi, %
<b>Xitoy</b>	89274,8	132712,3	148,7	38,1
<b>Turkiya</b>	21974,8	31904,6	145,2	9,2
<b>Janubiy Koreya</b>	12250,2	25552,3	2,0 b	7,3
<b>Litva</b>	16024,3	17116,1	106,8	4,9
<b>Hindiston</b>	9736,7	16847,7	173,0	4,8
<b>Germaniya</b>	25954,7	13029,9	50,2	3,7
<b>Braziliya</b>	59,2	12874,9	217,3b	3,7
<b>Latviya</b>	19352,8	11688,4	60,4	3,4
<b>AQSH</b>	3991,0	11306,6	2,8 b	3,2
<b>Eron</b>	1980,7	5482,6	2,7b	1,6

Boshqa xorijiy davlatlar orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning importi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan Germaniya (49,8%), Latviya (39,6 %), keskin kamaytirgan . O'tgan yilning mos davriga nisbatan Braziliya (217,3 b), AQSH (2,8 b), Eron (2,7 b) ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning import hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi.  
Abdurayimov J.J  
tel (71)230-88-20(21)